

**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**RAXIMOVA ZULFIYA ALLAYAROVNA**

**REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA ADENOMIOZ  
RIVOJLANISHINING KLINIK-PATOGENETIK ASOSLARI**

**14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Raximova Zulfiya Allayarovna**

Reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomioz  
rivojlanishining klinik-patogenetik asoslari..... 3

**Рахимова Зульфия Аллаяровна**

Клинико-патогенетические основы развития  
аденомиоза у женщин репродуктивного возраста..... 27

**Raximova Zulfiya Allayarovna**

Clinical and pathogenetic bases of development  
of adenomyosis in women of reproductive age ..... 53

**E’lon qilingan nashrlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published scientific works..... 60

**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**RAXIMOVA ZULFIYA ALLAYAROVNA**

**REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA ADENOMIOZ**  
**RIVOJLANISHINING KLINIK-PATOGENETIK ASOSLARI**

**14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tib2616 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (uzbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tma.uz](http://www.tma.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar**

**Muminova Ziyoda Abrorovna**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar**

**Kattaxodjayeva Maxmuda Xamdamovna**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Feruza Djavdatovna**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot**

**Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100140 Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy. Tel/faks: (+998) 71-262-33-14, e-mail: [mail@tashpmi.uz](mailto:mail@tashpmi.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat tibbiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100140 Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy. Tel/faks: (+998) 71-262-33-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.V. Alimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**X.A. Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Q.N. Xaitov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
tibbiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi anotatsiyasi)

**Dissretatsiya mavzusining ahamiyati va dolzarbligi.** Dunyoda adenomioz uchrash salmog'i yildan-yilga ortib bormoqda. So'nggi yillarda rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 35% gacha ortib bormoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, «... endometrioz butun dunyo bo'ylab reproduktiv yoshdagi ayollar va qizlarning taxminan 10 foizida uchraydi...»<sup>1</sup>. Shundan, adenomioz-genital endometrioz eng keng tarqalgan shakli bo'lib, 70-90% hollarda uchraydi. Reproaktiv yoshdagi ayollarda adenomioz kasalligi ayollarning reproduktiv faoliyatiga salbiy ta'sir etmoqda, shuning uchun ham ushbu kasallikni patogenezini chuqur o'rganish va xavf omillarini aniqlash, erta diagnostika usullarni izlab topib takomillashtirish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Jahonda adenomioz rivojlanishining patogenetik, klinik va immunogistokimyoviy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Adenomioz dismenoreya, bepushtlik, menometroragiya va turli intensivlikdagi surunkali tos og'rig'ining keng tarqalgan sabablaridan biri bo'lib, ko'pincha psixosomatik va vegetativ kasalliklarga olib keladi. So'nggi yillarda ushbu kasallikning uchrash darajasi sezilarli darajada oshgan va ko'pincha bemorlarning sog'lig'iga, shu jumladan reproduktiv salomatlikka jiddiy xavf tug'diradigan keyingi bosqichlarda (III-IV bosqichlarda) tashxis qo'yiladi. Bu holat adenomiozning dastlabki bosqichlari uchun aniq va invaziv bo'lmagan mezonlarning yo'qligi bilan bog'liq. Ushbu kasallikning etiologiyasi va patogenezini hanuz bahsli bo'lib, qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish va tibbiy tizimni jahon andozalariga moslashtirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligiga qaratilgan to'g'ri va maqsadli yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq, aholiga tibbiy yordam ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishga oid bir qator vazifalar belgilangan, masalan «...birlamchi tibbiy xizmatda aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash...»<sup>2</sup> kabi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu borada reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomioz kasalligi rivojlanishining klinik patogenetik asoslarini o'rganish va erta diagnostika usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi qilish Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60 son, 2019-yil 8-noyabrdagi «Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatilgan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish to'g'risida»da PF-4513 son farmonlari, 2023-yil 8-sentabrdagi «Onalar va bolalar salomatligini muhofaza, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-296 son, 2022 yil 25 apreldagi «Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-215 son qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli

<sup>1</sup> <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/endometriosis>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-sentyabrdagi PF-156-sonli «Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni.

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 190 million ayol endometriozdan aziyat chekmoqda, ularning soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. Bu kasallik Yevropa davlatlarida reproduktiv yoshdagi ayollarning taxminan 35 foizgacha uchraydi, ammo bu aholi soniga, diagnostika usullariga va geografik joylashuvga qarab farq qilishi mumkin (Elena Juarez-Barber, Ana Corachan et al., 2024). Shu bilan birga, tahlillarga ko'ra adenomioz bilan og'rikan ayollarda homilador bo'lish, implantatsiya qilish, homiladorlik va tug'ruq davridagi patologiyalar kabi bir qator reproduktiv faoliyati buzilishi sog'lom ayollarga nisbatan bir necha barobar yuqoriligi kuzatilgan. Bu adenomioz kasalligining embrion implantatsiyasi va homiladorlikning erta davridagi patologik o'zgarishlarning sababi ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, adenomiozning patogeneza ishtirok etadigan asosiy molekulyar mexanizmlarni tushunish adenomioz bilan bog'liq bepustlikni davolash (Vercellini P., Bonfanti I. et al., 2019) uchun katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

MDH davlatlari olimlari (Adamyana L.V. va boshqalar, 2021; Unanyan A.L. va boshqalar, 2021) ma'lumotlariga ko'ra, tug'ish yoshidagi ayollarning taxminan 15 foizi endometriozdan aziyat chekmoqda. Adenomioz esa, endometriozning eng keng tarqalgan shakli sifatida, 70-90% hollarda uchraydi. Adenomioz estrogeniga bog'liq bo'lgan ginekologik kasallik bo'lib, to's a'zolaridagi og'riqlar, bachadondan anomal qon ketishi va bepustlikka sabab bo'ladi (Orazov M.R., Xilkevich va boshqalar, 2016)). Biroq, adenomiozning patogenezi va etiologiyasi hali to'liq aniqlanmagan. Uning rivojlanish sabablari ikki asosiy nazariyada yoritilgan deb hisoblanadi: a) invaginatsiya nazariyasi, miometriy silliq mushak hujayralari yoki intramiometrial limfa tomirlari orqali endometriyning chuqur qismining invaginatsiyasi (Ordians I.M. va boshqalar, 2014), b) metaplaziya nazariyasi, miometriy sohasida endometriy to'qimalarining ektopik joylashuvi bilan boshlanadigan metaplastik jarayon (Unanyan A.L. va boshqalar, 2013; Nepomnyashchikh L.M., 2012; Kogan va boshq., 2015). Ko'pgina mualliflar adenomioz patogenezi aniqlash uchun murakkab tadqiqotlar talab qilinishini ta'kidlamoqda.

Mamlakatimizda adenomioz kasalligining uchrashi yildan-yilga ortib bormoqda, buning sababi zamonaviy diagnostikaning kirib kelishi bilan bog'lanmoqda. Ko'p tasniflarning mavjudligi, klinik ko'rinishning ko'p qirraliligi va tashxisning ko'pincha gistologik tekshiruvdan so'ng tasdiqlanishi tufayli ushbu kasallikni tashxislashda qiyinchiliklar mavjud. Ushbu kasallik bo'yicha mamlakatimizda reproduktiv yoshdagi ayollarda birgalikda kelgan bachadon miomasi va adenomiozni tashxislash va davolashda zamonaviy yondashuvlar bo'yicha ilmiy izlanishlar (professor Babjanova G.S. va Abdurahmonova S.I. 2018) olib borilgan. Ayollarda genital endometriozning klinik immunologik rivojlanish mezonlari va differensial immunokorreksiyasi haqida ilmiy izlanishlar (Ismoilova D.U., Magzumova N.M., va xammual) olib borilgan.

Shuni takidlash joizki, bugungi kunga qadar o'tkazilgan tadqiqot ishlari asosan endometriozning klinik belgilari, immunologik xususiyatlari bag'ishlangan ammo, reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomioz kasalligini klinikasi, patogenezi, erta noinvaziv diagnostikasi bo'yicha yetarli tadqiqotlar olib borilmagan. Mazkur muammoga bag'ishlangan tadqiqotlar yetishmasligi izlanishlarni yanada chuqur o'rganish talab qiladi, bu esa ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilganlik oliy ta'lim muassasasining ilmiy- tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent tibbiyot akademiyasining №012300281 "Ona va bola salomatligining tibbiy-ijtimoiy muammolari. Tashxislash, bashoratlash, davolash va oldini olish masalalarining yechimini topish" (2023-2027) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomioz rivojlanishining klinik va patogenetik jihatlarini o'rganish va samarali erta tashxislash usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomiozning tarqalganligini aniqlash, adenomiozning turli darajalarida klinik xususiyatlarini va bachadonning "o'tish zona"si ultratovush vizualizatsiyasi xususiyatlarini hamda turli darajadagi adenomioz bilan bog'liq bachadon arteriyasi havzasida qon oqimining funksional holatini baholash;

adenomioz kasalligi rivojlanishida MMP-9 geni A-8208G, VEGF genida C-634G polimorfizmlarini o'rganish orqali adenomioz patogenezida genlarning rolini baholash;

adenomioz kasalligida bachadonning morfologik jihatlarini o'rganish orqali "o'tish zonasi" patogenetik belgilarini aniqlash;

bachadonning "o'tish zonasi" ultratovush xususiyati va bachadon bo'yni shillig'idagi qon tomir omili VEGF A ko'rsatkichlarini turli darajadagi adenomiozda korrelyativ aloqalar asosida tahlil qilib, adenomiozning erta noinvaziv diagnostika usulini ishlab chiqish va uning diagnostik informativligini baholash.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida 2021-2024 yildagi diffuz adenomioz bilan kasallangan, reproduktiv yoshdagi 125 ta ayollar 9-tumanlararo Perinatal markazi va "Neo Med Cardio" klinikasida tekshiruvdan o'tgan ayollar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida reproduktiv yoshdagi ayollarning qoni, bachadon bo'yni shillig'i va amputatsiya qilingan bachadon to'qimasidan makropreparatlar olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Adenomioz bilan kasallangan bemorlarni o'rganishda quyidagi usullar qo'llanildi: umumiy klinik, molekulyar –biologik, biokimyoviy tekshiruvlar, instrumental, morfologik, statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bachadonning 3D ultratovush tekshiruvi orqali I darajali diffuz adenomiozli ayollarda bachadonning "o'tish zonasi" o'lchami 5,2 mm dan oshadi, II darajali adenomiozli ayollarda bu ko'rsatkich 2,38 barobar yuqori, III guruhda jarayon keng tarqalgan bemorlarda esa "o'tish zonasi" aniqlanmasligi, adenomiozning barcha klinik guruhlarda yuqori darajada qon oqimining rezistentligi kuzatilgan bo'lib, ayniqsa III darajali diffuz adenomiozda bachadon arteriyalari havzasidagi ko'rsatkichlar IRu  $0,98 \pm 0,01$ , IRa  $0,68 \pm 0,05$ , IRr  $0,60 \pm 0,03$ , IRb  $0,58 \pm 0,03$

nazorat guruhiga nisbatan IRu  $0,85 \pm 0,12$ , IRa  $0,66 \pm 0,03$ , IRr  $0,52 \pm 0,01$ , IRb  $0,502 \pm 0,502$  statistik jihatdan tubdan farq qilishi isbotlangan;

adenomioz kasalligi rivojlanishida MMP-9 geni A-8208 G polimorfozimi III-darajali adenomiozda yuqoriligini ko'rish mumkin (OR = 4.5; 95% CI: 1.01-19.81;  $p < 0,05$ ), bu uning kasallikning og'ir darajalari rivojlanishida qo'shgan hissasini ko'rsatadi, VEGF genida C-634G polimorfizmini variantining C alleli va GC va CC genotiplari kasallik hamma darajasida yuqoriligi adenomioz rivojlanishining patogenezga yuqori xavf omili ekanligi isbotlangan;

keng ko'lamlı morfometrik tadqiqotlar o'ziga xos xususiyati miometriyning "o'tish zonasida" bir xil tolali tuzilmalarning ko'pligi bo'lib, bu kasallikning patogenezini tushunishga yordam beradi, endometriy bez epiteliylarining miometriyga o'sib kirish chuqurligi tadqiqotda o'rganilgan materiallarda endometriyning miometriyga chuqur o'sib kirish o'choqlari o'rtacha  $9,55 \pm 15,6$  mmni tashkil qilishi isbotlangan;

adenomiozda endometriydagi antiangiogen va proangiogen o'sish omillari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida angiogenezning avtokrin regulyatsiyasidagi o'zgarishlar va qon tomirlarining proliferativ faolligining oshishi kuzatilgan, shuning uchun adenomiozda mahalliy angiogenez bemorlarda VEGF A konsentratsiyasining oshishi I darajali adenomiozda ( $102,5 \pm 10,1$  pg/ml) va nazorat guruhida normal ko'rsatkichlar ( $54,3 \pm 12,5$  pg/ml) statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ( $p < 0,05$ ) bo'lib, bu angiogenezning avtokrin regulyatsiyasidagi o'zgarishlarni va qon tomir faolligining oshishi isbotlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ultratovush tekshiruvı natijalari I darajali adenomiozli bemorlarda 100% hollarda bachadonning "o'tish zonasi" ko'rinishi o'rtacha 5,2 mm bo'lganligi aniqlangan va bu belgi I darajali adenomiozning exografik mezonı ekanligi vabachadon arteriyasi va uning shoxlarida gemodinamik ko'rsatkichlari turli darajadagi diffuz adenomiozda bachadon arteriyasi va uning shoxlarida qon oqimining qarshilik ko'rsatkichlari o'zgarishi aniqlangan, ushbu o'zgarishlar adenomioz tarqalish darajasidan qat'i nazar bachadonning funksional holatini baholash uchun muhim diagnostik ma'lumotlarga asoslangan;

endometriy bez epiteliylarining miometriyga o'sib kirish chuqurligi tadqiqotda o'rganilgan materiallarda endometriyning miometriyga chuqur o'sib kirish o'choqlari o'rtacha  $9,55 \pm 1,56$  mm ni tashkil qilgan, shuningdek 2 sm va undan chuqur o'sib kirgan adenomioz o'choqlarida tadqiqot davomida uchramasliga asoslangan;

adenomioz kasalligi rivojlanishida MMP-9 geni A-8208 G polimorfozimi III-darajali adenomiozda yuqoriligini ko'rish mumkin (OR = 4.5; 95% CI: 1.01-19.81;  $p < 0,05$ ), bu uning kasallikning og'ir darajalari rivojlanishida qo'shgan hissasini ko'rsatadi, VEGF genida C-634G polimorfizmini variantining C alleli va GC va CC genotiplari kasallik hamma darajasida yuqoriligi asoslangan;

angiogen omillarning faolligi bachadon bo'yni shillig'ida oshishi adenomiozning dastlabki bosqichlarida endometriyda angiogenezning avtokrin regulyatsiyasi buzilganini ko'rsatishi VEGF-A konsentratsiyasini bachadon bo'yni shillig'ida qo'shimcha erta invaziv bo'lmagan diagnostika belgilaridan biri ekanligiga asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan zamonaviy yondashuv va usullar, nazariy malumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi,

olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, bemorlar sonining yetarli ekanligi, statistik tekshirish usullari yordamida ishlov berilganligi, shuningdek tadqiqot natijalari xalqaro va mahalliy ma'lumotlar bilan taqqoslanganligi, chiqarilgan xulosa va olingan natijalarning vakolatli organlar bilan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomioz kasalligining patogenezi haqidagi tushunchalar kengaytirilishi, bachadonning "o'tish zonasi" ultratovush belgilari, doppler orqali qon tomir qarshiligini aniqlash (IR), adenomioz rivojlanishining genetik va immunoferment angiogen omillar (VEGF A) tekshiruvi, doppler stress testi kabi yangi usullarni ishlab chiqilganligi va ularning ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomioz kasalligining noinvaziv erta diagnostika qilishda I darajali adenomiozning ultratovush belgilari qilib "o'tish zonasi" qalinligi 5 mm dan ortiq bo'lsa, doppler funksional stress testi qiymati 1,2 dan yuqori va bachadon bo'yni shillig'ida VEGF-A darajasi 80 pg/ml dan yuqori bo'lsa, birinchi darajadagi adenomioz tashxislashga yangi mezonlar ishlab chiqishga erishilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot reproduktiv yoshdagi adenomiozli ayollarning instrumental, molekulyar-biologik, morfologik va biokimyoviy xususiyatlarini aniqlash va baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

*birinchi ilmiy yangilik:* bachadonning 3D ultratovush tekshiruvi orqali I darajali diffuz adenomiozli ayollarda bachadonning "o'tish zonasi" o'lchami 5,2mmdan oshadi, II darajali adenomiozli ayollarda bu ko'rsatkich 2,38 barobar yuqori, 3 guruhda jarayon keng tarqalgan bemorlarda esa "o'tish zonasi" aniqlanmasligi, adenomiozning barcha klinik guruhlarda yuqori darajada qon oqimining rezistentligi kuzatilgan bo'lib, ayniqsa III darajali diffuz adenomiozda bachadon arteriyalari havzasidagi ko'rsatkichlar IRu  $0,98 \pm 0,01$ , IRa  $0,68 \pm 0,05$ , Irr  $0,60 \pm 0,03$ , IRb  $0,58 \pm 0,03$  nazorat guruhiga nisbatan IRu  $0,85 \pm 0,12$ , IRa  $0,66 \pm 0,03$ , IRr  $0,52 \pm 0,01$ , IRb  $0,502 \pm 0,502$  statistik jihatdan tubdan farq qilishi isbotlanganligi Toshkent tibbiyot akademiyasining muofiqlashtirilgan ekspert kengashi 2024 yil 13-maydagi №05-24/319-t sonli qarori bilan tasdiqlangan "Adenomiozni noinvaziv erta diagnostika usuli" nomli uslubiy tavsiyanomasi tarkibiga kiritilgan va Toshkent shahar 5-son Tug'ruq kompleksi 10.07.2024 yildagi №73-sonli va RIO va BSIATM Xorazm viloyati filialining 9.07.2024 yildagi №87-sonli buyruqlari asosida amaliyotga tadbiiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy - texnik kengashining 10.12.2024 yildagi №10/63-son xulosasi). **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** adenomioz bilan kasallangan bemorlarda ultratovush tekshiruvi natijalariga ko'ra, endometriyga tutashgan exogenlik zonasi ("o'tish zonasi") o'lchash orqali ayollarda erta noinvaziv diagnostika usullarining joriy etilishi tashxis jarayonida qimmat va invaziv tekshiruvlardan voz kechish imkoniyati paydo bo'lgan, adenomioz erta noinvaziv tashxislash mezonini ishlab chiqilgan, ushbu mezon orqali kasallikka erta noinvaziv tashxislash adenomiozning birinchi darajasidayoq aniqlash, uni erta konservativ davolash va kasallik simptomlarini kamaytirgan. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:** tadqiqotda adenomioz kasalligini UTT, Doppler, funksional stress

test, biokimyoviy usullar kasallikni erta noinvaziv aniq tashxis qo'yish mezonini ishlab chiqish orqali 125 nafar bemorga aniq tashxis qo'yish uchun umumiy hisobda byudjetdan tashqari 64750000 so'm mablag' iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** reproduktiv yoshdagi bemorlarda ultratovush tekshiruv natijalariga ko'ra, endometriyga tutashgan exogenlik zonasi ("o'tish zonasi") o'rganish kasallikni erta noinvaziv tashxislash adenomiozning birinchi darajasidayoq aniqlash uni erta konservativ davolash va kasallik simptomlarini kamaytiradi va har bir bemor uchun o'rtacha 518000 so'm mablag'ni tejash imkonini bergan;

**ikkinchi ilmiy yangilik:** adenomioz kasalligi rivojlanishida MMP-9 geni A-8208G polimorfozimi III-darajali adenomiozda yuqoriligini ko'rish mumkin (OR = 4.5; 95% CI; 1.01-19.81; P<0,05), bu uning kasallikning og'ir darajalari rivojlanishida qo'shgan hissasini ko'rsatadi, VGEF genida C-634G polimorfizmini variantining C alleli va GC va CC genotiplari kasallik hamma darajasida yuqoriligi adenomioz rivojlanishining patogenezga yuqori xavf omili ekanligi isbotlanganligi Toshkent tibbiyot akademiyasining muofiqlashtirilgan ekspert kengashi 2024 yil 13-maydagi №05-24/319-t sonli qarori bilan tasdiqlangan "Adenomiozni noinvaziv erta diagnostika usuli" nomli uslubiy tavsiyanomasi Toshkent shahar 5-son Tug'ruq kompleksi 10.07.2024 yildagi №73-sonli va RIO va BSIATM Xorazm viloyati filialining 9.07.2024 yildagi №87-sonli buyruqlari asosida amaliyotga tadbiiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy–texnik kengashining 10.12.2024 yildagi №10/63-son xulosasi). **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** adenomiozning rivojlanishiga moyillik ma'lum noqulay irsiy fonni yaratadigan gen variantlari allellarga bog'liqligini o'rganish ayollarning reproduktiv tizimining o'rganishning yangi va istiqbolli tadqiqot sohasidir. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:** tadqiqotda adenomioz kasaliligini UTT, Doppler, funksional stress test, biokimyoviy usullar kasallikga erta noinvaziv aniq tashxis qo'yish mezonini ishlab chiqish orqali 125 nafar bemorga aniq tashxis qo'yish uchun umumiy hisobda byudjetdan tashqari 64750000 so'm mablag' iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** adenomiozning rivojlanishiga moyillik ma'lum noqulay irsiy fonni yaratadigan gen variantlari allellarga bog'liqligini o'rganish va har bir bemor uchun o'rtacha 518000 so'm mablag'ni tejash imkonini bergan;

**uchinchi ilmiy yangilik:** keng ko'lamli morfometrik tadqiqotlar o'ziga xos xususiyati miometriyning "o'tish zonasida" bir xil tolali tuzilmalarning ko'pligi bo'lib, bu kasallikning patogenezini tushunishga yordam beradi, endometriy bez epiteliylarining miometriyga o'sib kirish chuqurligi tadqiqotda o'rganilgan materiallarda endometriyning miometriyga chuqur o'sib kirish o'choqlari o'rtacha  $9,55 \pm 15,6$  mmni tashkil qilishi isbotlanganligi Toshkent tibbiyot akademiyasining muofiqlashtirilgan ekspert kengashi 2024 yil 13-maydagi №05-24/319-t sonli qarori bilan tasdiqlangan "Adenomiozni noinvaziv erta diagnostika usuli" nomli uslubiy tavsiyanomasi va Toshkent shahar 5-son Tug'ruq kompleksi 10.07.2024 yildagi №73-sonli va RIO va BSIATM Xorazm viloyati filialining 9.07.2024 yildagi №87-sonli buyruqlari asosida amaliyotga tadbiiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy–texnik kengashining 10.12.2024 yildagi №10/63-son xulosasi). **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** turli sabablarga ko'ra qon ketishlar, endometriyning adenomatoz giperplaziyasida va boshqa sabablar amputatsiya qilingan bachadon to'qimasi morfologik usulda o'rganilgan ushbu taqiqot kasallikning patogenetik jihatlarini o'rganish, tashxislash va davolashda yangi usullarni ishlab chiqishga imkoniyat bergan. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy**

**samaradorligi:** tadqiqotda adenomioz kasalligini UTT, Doppler, funksional stress test, biokimyoviy usullar kasallikga erta noinvaziv aniq tashxis qo'yish mezonini ishlab chiqish orqali 125 nafar bemorga aniq tashxis qo'yish uchun umumiy hisobda byudjetdan tashqari 64750000 so'm mablag' iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** bachadonni morfometrik o'rganish orkali bachadonning "o'tish zonasi" patogenetik jihatlarini ochib bergan va ushbu usul har bir bemor uchun o'rtacha 518000 so'm mablag'ni tejash imkonini bergan;

**to'rtinchi ilmiy yangilik:** adenomiozda endometriydagi antiangiogen va proangiogen o'sish omillari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida angiogenezning avtokrin regulyatsiyasidagi o'zgarishlar va qon tomirlarining proliferativ faolligining oshishi kuzatilgan, shuning uchun adenomiozda mahalliy angiogenez bemorlarda VGEF A konsentratsiyasining oshishi I darajali adenomiozda ( $102,5 \pm 10,1$  pg/ml) va nazorat guruhida normal ko'rsatkichlar ( $54,3 \pm 12,5$  pg/ml) statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ( $p < 0,05$ ) bo'lib, bu angiogenezning avtokrin regulyatsiyasidagi o'zgarishlarni va qon tomir faolligining oshishini isbotlanganligi Toshkent tibbiyot akademiyasining muofiqlashtirilgan ekspert kengashi 2024 yil 13-maydagi №05-24/319-t sonli qarori bilan tasdiqlangan "Adenomiozni noinvaziv erta diagnostika usuli" nomli uslubiy tavsiyanomasi va Toshkent shahar 5-son Tug'ruq kompleksi 10.07.2024 yildagi №73-sonli va RIO va BSIATM Xorazm viloyati filialining 9.07.2024 yildagi №87-sonli buyruqlari asosida amaliyotga tadbiiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy–texnik kengashining 10.12.2024 yildagi №10/63-son xulosasi). **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** immunoferment tekshiruv uchun biomaterial bachadon bo'yni shillig'idan olingan, ushbu usul og'riqsiz, infeksiya yuqish ehtimoli yo'q, noinvaziv, adenomioz bilan og'rikan bemorlarda mahalliy angiogenez holatini baholashda VGEF A konsentratsiyasi 1-klinik guruhda 4-guruhdagi (nazorat-1) me'yoriy ko'rsatkichlarga nisbatan 1,88 martaga oshganligi aniqlangan. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:** tadqiqotda adenomioz kasalligini UTT, Doppler, funksional stress test, biokimyoviy usullar kasallikga erta noinvaziv aniq tashxis qo'yish mezonini ishlab chiqish orqali 125 nafar bemorga aniq tashxis qo'yish uchun umumiy hisobda byudjetdan tashqari 64750000 so'm mablag' iqtisod qilishga erishilgan. **Xulosa:** VGEF A ni bachadon bo'yni shillig'idan aniqlash adenomiozli bemorlarda mahalliy angiogenez holatini baholashda VGEF A konsentratsiyasining sezilarli darajada oshishi dastlab 1-klinik guruhda ( $102,5 \pm 10,1$  pg/ml) bo'lib, 4-guruh (nazorat-1) me'yoriy ko'rsatkichlar ( $54,3 \pm 12,5$  pg/ml) statistik jihatdan sezilarli darajada oshganligi aniqlangan, ushbu ko'rsatkich yuqori aniqlikka egaligi sababli amaliyotga keng tadbiiq etish va har bir bemor uchun o'rtacha 518000 so'm mablag'ni tejash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi materiallari bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 5 ta jurnal maqolasi, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlardan 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda va 1 ta uslubiy tavsiyanoma nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 113 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adenomioz patogenezi o'rganishda zamonaviy imkoniyatlar va istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida muammoning dolzarbligidan kelib chiqib, umumlashtirilgan adabiyot ma'lumotlari keltirilgan. Reproduktiv yoshdagi ayollarda adenomiozning o'ziga xos xususiyatlari va “o'tish zonasi”ning disfunktsiyalari o'rganilgan. Adenomiozning rivojlanishida “o'tish zonasi” buzilishi etiopatogenezning asosiy komponenti sifatida ishtirok etishi ta'kidlangan. Oddiy sharoitlarda va adenomioz tarqalishining turli darajalarida, ektopik va eutopik endometriyda proliferativ faolligi hamda angiogenik xususiyatlarini baholash orqali “o'tish zonasi”ni o'rganish, adenomiozning patogenezi haqidagi g'oyalarni chuqurlashtirish va kengaytirish istiqbollari haqida mahalliy va xorijiy nashrlardagi so'nggi 5-10 yillik adabiyotlar sharhi berilgan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqot materiallari va usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida klinik materiallarning umumiy tavsifi va tadqiqot usullari bayon etilgan. Tadqiqot 2021-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda Toshkent tibbiyot akademiyasi (rektor prof. A.K.Shadmanov) Akusherlik va ginekologiya kafedrasining klinik bazasi hisoblangan Toshkent shahar 9-son tumanlararo perinatal markazida (bosh shifokor U.U.Begjanov) va “Neo Med Cardio” tibbiy-diagnostika markazida (shifokor tibbiy radiolog Polvonova S.) o'tkazilgan. Shuningdek, Respublika Patologik anatomiya markazida morfologik tadqiqotlar bajarilgan. Tadqiqotning ushbu bobida klinik va laborator tekshiruvlari, bachadon ultratovush tekshiruvi bilan birga arteriyasi havzasi tomirlarining doplerometriyasi va bachadon bo'yni shillig'ida VEGF Aning miqdori, genetik tekshiruv va turli sabablarga ko'ra ampulatsiya qilingan bachadon morfologik o'rganildi. Bemorlarni adenomioz darajasi ultratovush mezonlariga ko'ra guruhlariga bo'lindi: I guruh 30 nafar adenomioz tarqalishining I darajasi, II guruh 30 nafar adenomioz tarqalishining II darajasi, III guruh 32 nafar adenomioz tarqalishining III darajasi bilan kasallangan ayollar va IV guruh nazorat n=33 ginekologik sog'lom ayollarga ajratib o'rganilgan.

Tadqiqotlardan olingan natijalar Microsoft Office Excel-2010 elektron jadvallardan foydalangan holda shaxsiy kompyuterda olingan barcha miqdoriy ma'lumotlar o'zgaruvchanlik statistikasi usuli yordamida qayta ishlandi. Olingan natijalar o'rtacha qiymatlar (M) va o'rtacha (m) xato shaklida ifodalangan. Sifatli ma'lumotlar chastotalar (%) sifatida taqdim etilgan. O'rganilayotgan guruhlarining o'rtacha qiymatlarini solishtirganda, mumkin bo'lgan xatoning foizi juft taqqoslash uchun Student t-test jadvali yordamida aniqlandi, bu farqning ahamiyatlilik qiymatlari sifatida ifodalangan - "p", bu erda  $p < 0,05$  bo'lganda statistik ahamiyatga


ega deb qabul qilingan. Korrelyatsiya koeffitsienti - r va uning ishonchliligi Bravais-Pirson bo'yicha hisoblangan, bu yerda 0,3-0,5 o'rtacha, 0,5-0,7 muhim va 0,7-0,9 kuchli ifodalangan.

Dissertasiyaning III bobi “Adenomioz bilan tekshirilayotgan bemorlarning klinik xususiyatlari va instrumental tekshiruv natijalari” bag'ishlangan bo'lib, turli darajadagi diffuz adenomioz bilan og'riqan bemorlarning 125 ta ambulator yozuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda turli darajadagi adenomioz diagnostikasida ultratovush usulining klinik xususiyatlari va axborot mazmuni baholangan.

Diffuz adenomiozni aniqlash uchun standart diagnostika usullarining informativligini baholash maqsadida tadqiqot 2021-2024-yillar oralig'ida Toshkent shaharning 9-sonli tumanlararo perinatal markazida va “Neo Med Cardio” xususiy klinikasida 125 nafar bemor ishtirokida o'tkazilgan.

Ushbu bemorlarda klinik va instrumental tadqiqot usullari asosida turli darajadagi “diffuz adenomioz” tashxisi qo'yildi. Tashxisni aniqlashda qo'llanilgan tadqiqotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: transvaginal ultratovush tekshiruvi (TVUS), doppler tekshiruvini o'z ichiga olgan.

Bundan tashqari, 125 nafar ayoldan 92 nafari ultratovush tekshiruvi yordamida adenomioz tashxisi qo'yilgan, 33 nafar sog'lom ayol esa nazorat guruhi sifatida tanlab olingan. Adenomiozli bemorlarni batafsil tekshirishda klinik va anamnestic o'ziga xos xususiyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Adenomiozli bemorlarning yoshi 18 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan. Bemorlarni yosh bo'yicha tahlil qilishda quyidagilar aniqlangan.



### 1-diagramma. Adenomiozli bemorlarning yosh bo'yicha taqsimlanishi

Adenomioz bilan kasallangan ayollarning shifokorga asosan murojati: dismenoreya (hayz boshlanishidan 2-5 kun oldin qorinning pastki qismida og'riqlar va og'riqli hayz ko'rish), giperpolimenoreyaga, beqaror hayz davri (uzoq, 7 kundan ortiq hayz ko'rish), qisqa hayz davri bilan (21 -23 kun orasida mensturatsiya kelishi), hayzdan oldin va keyin qon surkalmalarning kelishi, shuningdek, kutilgan ovulyatsiya kunlarida ovulyatsiyaning sodir bo'lmasligi, turli intensivlikdagi bachadondan qon ketishi, 2 yildan 6 yilgacha davom etadigan bepushtligi bor ayollar. Bizning tadqiqotimizga ko'ra kasallikning eng keng tarqalgan alomati dismenoreya ekan. Barcha klinik guruhlardagi bemorlarda dismenoreya bilan kasallanish 100% ni tashkil etgan. Bundan tashqari 3-guruhda dismenoreyaning

og'irligi bemorlar tomonidan 37,5% da o'rtacha va 21,875% da og'ir deb baholangan. 1-guruhdagi 22 nafar bemorda (I darajali adenomioz) dismenoreyaning o'rtacha darajasi ustunlik qildi (73,33%). 2-guruhdagi bemorlarda (ikkinchi darajali adenomioz bilan) o'rtacha darajadagi dismenoreya 14 nafar bemorda (46,67%), og'ir darajasi esa 12 nafar (40%) aniqlangan. III darajali adenomiozli bemorlarda (3-guruh) yengil va o'rtacha dismenoreya taxminan teng nisbatda (mos ravishda 40,625 va 37,5%) sodir bo'lgan. Adenomiozli bemorlarning somatik kasalliklar anamnestik surishtiruv olib bordik va bemorlarning reproduktiv salomatligini shakllantiradigan bolalik va o'smirlik davrini hisobga olgan holda amalga oshirdik. Bolalik infeksiyalari (qizamiq, qizilcha, suvchechak, sariq) LOR a'zolarining tez-tez uchraydigan kasalliklari (surunkali tonsillit, adenoidit, sinusit va boshqalar) juda yuqori chastotali (73 nafar bemor (79,34%)), shuningdek, 4-guruh (nazorat-1) bilan solishtirganda adenomiozli bemorlarning o'tkir respirator kasalliklariga 61 nafar bemor (66,3%) yuqori sezuvchanlik, shuningdek, prepubertal va postpubertal davrda vegetative qon tomir distoniyasi bilan kasallangan bemorlarda sezilarli darajada kuzatildi va adenomioz 4-guruh (nazorat-1) bilan solishtirganda (25%, 4% ga nisbatan). Bolalikda tana vaznining ortishi 49 nafar (53,2 %) bemorda kuzatilgan.

Akusherlik va ginekologik tarixni yig'ishda adenomioz bilan og'rigan bemorda hayz ko'rish 10-11 yoshda 11 nafar bemorda (11,95% ), 12-13 yoshda – 63 nafar bemorda (68,47%), 13-14 yoshda 17 nafar bemorda (18,47%), 15 yoshdan oshgan 1 nafar bemorda (1,086%) sodir bo'lganligi aniqlandi. Nazorat guruhida hayz ko'rish o'rtacha 10-11 yoshda 3 nafar ayolda (9,09%), 12-13 yoshda 11 nafar ayolda (33,33%), 13-14 yoshda – 13 ta bemorda (39,39%), yoshda, 15 yoshdan keyin -3 nafar ayolda (9,09%) da sodir bo'lgan. Shu bilan birga, statistik jihatdan ahamiyatli guruhlararo farqlar aniqlanmadi, lekin umuman olganda, adenomiozli bemorlar 4-guruhga nisbatan erta hayz ko'rishgan (nazorat 1). Adenomioz bilan og'rigan ayollar 45 nafari (48,91%) 1 marotabadan, 21 nafari (22,8%) ikkita, 2 nafari (2,17%) uchta marotabadan tug'ruq kuzatilgan. Adenomioz bilan og'rigan 24 nafar bemorda (26%) homiladorlik kuzatilmadi va bu ko'rsatkich 1-guruhdagi bemorlarda eng yuqori ko'rsatkichga ega (birlamchi bepustlik 16 nafar (17,39%). Ushbu ko'rsatkich yuqoriligi bepustlikdan murojat qilgan ayollarda adenomioz belgilarini izlash sababli ham yuqori bo'lishi mumkin. Ikkilamchi bepustlik 8 nafar bemorda (8,69%), asosan, ikkinchi klinik guruhda kuzatildi. 62 nafar bemorda (67,39%) sun'iy abortlar sodir bo'lgan, 34 nafari (36,95%) bitta homiladorlik to'xtatilgan. 28 nafar bemorda (30,43%) ikki yoki undan homiladorlik to'xtatilgan. 31 nafar bemorda (33,8%) spontan tug'ish va yoki o'tkazib yuborilgan homiladorlik kuzatilgan. Shartli sog'lom ayollarning 4-guruhida (1-nazorat guruhi) 13 nafar (39,3%) bir marta tug'gan, 13 nafar ayol (36,3%) 2-marta tug'gan, 8 nafar (24,2%) 3-marta va undan ortiq tug'ishgan. 13 nafar ayolda (54%) 1 dan 3 gacha sun'iy abortlar bo'lgan.

#### **Turli darajadagi adenomiozli bemorlarni ultratovush tekshiruv natijalari**

Adenomiozning invaziv bo'lmagan instrumental diagnostikasi bosqichida, ushbu ishda barcha tekshirilgan bemorlarda rangli doppler yordamida ultratovush tekshiruv o'tkazildi. Exografik tadqiqot bachadonning hajmini, strukturaviy o'zgarishlarini (endometriy, "o'tish zonasi", miometriy), shuningdek qon oqimining sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari xususiyatlariga ega qon bilan ta'minlanish xususiyatlarini, shu jumladan hayz davrida dinamik kuzatishni o'z ichiga oladi. . Tadqiqot hayz davrining birinchi va ikkinchi bosqichlarida o'tkazilgan.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, adenomiozning birinchi darajasi bo‘lgan bemorlarda bachadonning o‘lchami 4-guruhdagidan deyarli farq qilmadi. Biroq, allaqachon bu bemorlarda, statistik jihatdan ahamiyatsiz bo‘lsada, birinchi fazaga nisbatan hayz davrining ikkinchi bosqichida bachadonning qalinligi, kengligi va hajmining oshishi kuzatilgan (1-jadval).

2 va 3-klinik guruhlarda 4-guruh (nazorat-1) va 1-klinik guruh bilan solishtirganda hayz davrining birinchi va ikkinchi fazalarida bachadon hajmining statistik jihatdan sezilarli o‘shishi kuzatilgan.

**1-jadval.**

**Adenomiozli bemorlarda hayz davrining dinamikasida bachadon va uning strukturaviy elementlarining o‘lchamlari.**

Guruhlar	4 guruh n = 33 (nazorat-1)		1guruh n = 30		2guruh n = 30		3 guruha n = 32	
	Erta proliferativ fazasi	O‘rta sekreksiya fazasi	Erta proliferativ fazasi	O‘rta sekreksiya fazasi	Erta proliferativ fazasi	O‘rta sekreksiya fazasi	Erta proliferativ fazasi	O‘rta sekreksiya fazasi
Bachadon tanasining uzunligi, mm	52,6±1,06	54 ±1,22	53,0±3,3	54±1,83	62±2,1	65±1,6	76±2,9	78±1,46
Old va orqa o‘lcham, mm	38±1,1	40 ±1,06	38,8±3,8	44,8±3,1	58±2,4	64±1,55	62±0,59	68±2,5
Kengligi, mm	50,8±1,4	52±1,3	51 ± 4,1	56 ±2,36	64±0,58	64±1,02	72±1,25	73±0,97
Bachadon hajmi, sm <sup>3</sup>	52,6±3,3	60,6±1,91	55±10,3	71±6,8	119,2±4,2	142,4±4,4	168±46,6	205±9,8
Qalinligi "o‘tish nasi"	3,3±0,8	3,2±0,54	5,2±0,66	7,2±0,11	12,4±0,4	13,6±0,58	-	-

Bizning ishimizda endometriyning bazal qatlamdan miometriyga kirib borishi bilan adenomiozning rivojlanishini hisobga olgan holda, “o‘tish zonasi”ni ultratovush tekshiruviga alohida e‘tibor qaratildi. 1-guruhdagi barcha bemorlarda ultratovush tekshiruv natijalariga ko‘ra, endometriyga tutashgan exogenlik zonasi (“o‘tish zonasi”) proliferativ fazada  $5,2 \pm 0,66$  mm gacha va sekretor fazada  $7,2 \pm 0,11$ mm gacha topilgan. Hayz davrining II darajali adenomiozli bemorlarda (2-guruh) qalinligi  $12,4 \pm 0,4$  mm gacha bo‘lgan “o‘tish zonasi” ham 3-guruhda keng tarqalgan jarayonga ega bo‘lgan bemorlarda “o‘tish zonasi yaxshi ajralib turmaydi, ehtimol, endometrial elementlarning miometriyga chuqur va keng kirib borishi hisobiga deb taxmin qilingan.

Bizning tadqiqotlarimizda adenomiozning eng xarakterli exografik belgilaridan biri adenomiozning ikkinchi va uchinchi bosqichlari (2 va 3-guruhlar) bo‘lgan bemorlarda 73,9% va 100% bo‘lgan bemorlarda bachadonning old va orqa devorlari hajmining oshishi edi. Bundan tashqari, II va III guruhlardagi eng katta o‘shish hayz davrining shartli ikkinchi bosqichida qayd etilgan. Adenomiozning xarakterli exografik belgisi - bachadonning yumaloq (sferik) shakli - ikkinchi bosqichida adenomiozning ikkinchi darajasi bo‘lgan bemorlarning 73,9 foizida va uchinchi darajali adenomiozli bemorlarning 89,4 foizida kuzatilgan. Siklning birinchi bosqichida xarakterli sharsimonlik faqat III darajali adenomiozli bemorlarning 65,4 foizida va II darajali adenomiozli bemorlarning 32,2 foizida

mavjud edi. Shunday qilib, erta bosqichdagi adenomioz odatda bachadonning kattalashishi va uning yumaloq (sferik) shaklini shakllantirish bilan tavsiflanmaydi.


1-guruhdagi 10 nafar tekshirilgan bemorlarda (30%), 2-guruhdagi 21 ta bemorlarning 71,4 foizida va 3-klinik guruhdagi barcha bemorlarda biz miometriyning geterogen tuzilishi (hujayralik) mavjudligida namoyon bo‘ladigan adenomiozning exografik belgisini topdik, patologik jarayonga jalb qilingan hududlarda soyalanish, exogenlik darajasining pasayishi va ortishi bilan bog‘liq. 1-guruhdagi 12 nafar bemorda (40%), 2-guruhdagi 19 nafar bemorda (59,4%), miometriy va 2 dan 4 mm gacha o‘lchamdagi "o‘tish zonasi" da dumaloq shakldagi mayda pufakchali shakllar va naychali anexogen tuzilmalar aniqlangan. 2-guruhning 23 nafar bemorda (76,67%) va 3-guruhning 26 nafar (86,67%) bachadonning yumaloq (sferik) shakli kuzatilgan.

Adenomiozli bemorlarning ultratovush ma’lumotlari tarqalish darajasiga qarab 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### Tadqiqot guruhlarida adenomiozning sonografik belgilari.


Guruhlar	1-guruh n = 30		2 guruh n = 30		3 guruh n = 32	
	Aбс.	%	Aбс.	%	Aбс.	%
Bachadon hajmining oshishi	0	0	21	70	32	100
Bachadon devorlarining assimetriyasi	0	0	12	40	19	59,4
Bachadonning yumaloq (sferik) shakli	0	0	23	78,2	26	86,9
Miometrial hujayralilik	6	25	16	69,56	24	100
Kichik kistali bo‘shliqlar va anexogen quvurli tuzilmalar	6	25	16	69,56	23	95,83
Endometriy-miometrium chegarasining geterogen tuzilishi	20	83,3	22	95,65	24	100
“O‘tish zonasi”	24	100	18	78,2	0	0



**1-rasm. I darajali adenomiozda “o‘tish zonasi”ning ultratovush o‘lchamlari 3D shaklda.**

Shunday qilib, ultratovush ma'lumotlariga ko'ra, qalinligi  $5,2 \pm 0,66$  mm bo'lgan 1-guruhdagi barcha bemorlarda endometriumga tutashgan exogenlik zonasi ("o'tish zonasi") ko'rsatilgan. (M0 = 5,2 mm)

2-guruhda bemorlarni darng 79,6 foizida ko'rilgan bo'lsa, uning qalinligi  $12,4 \pm 2,6$  mm (M0 = 10mm) gacha ko'tarilgan.




**2-rasm. II darajali adenomiozda “o'tish zonasi”ning ultratovush o'lchamlari 3D shaklda**



**3-rasm. 3-guruhda “o'tish zonasi” ko'rsatilmagan (loyqalik).**

**Adenomiozli bemorlarning bachadon arteriyasi havzasidagi qon oqimining dopplerametriik xususiyatlari.** Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra 4-guruh (nazorat-1) ayollarida sistolik-diastolik nisbatning bachadon va yoy arteriyalarida hayz davrining sekretor fazasining o'rtasiga nisbatan qiymati statistik jihatdan kamaydi. 1-guruhdagi siklning 1 va 2-bosqichlarida bachadon va yoysimon arteriyalarda R qiymatlari o'rtasidagi farq 27,3% va 26,3% ni tashkil etdi, bu amaldagi o'zgarishlar 4-guruhdagi (1-nazorat) 27,8% va 26% ga o'zgarishiga mos keladi .Bu ko'rsatkichlar orasidagi farq miqdori 4-guruh (1-nazorat) bilan

solishtirgandda, radial va bazal arteriyalarda siklning 1 va 2-bosqichlarida R qiymatlarining sistolik-diastolik nisbatining dinamik pasayishida statistik jihatdan muhim o'zgarishlar kuzatildi (18,2 % nisbatan 6,9% ga va 16,7%.ga nisbatan 5,9% nisbatan).



## 2-diagramma. Sog'lom ayollar va adenomioz bemorlarda qarshilik indeksi (IR).

Barcha tadqiqot guruhlari va 1-nazorat guruhi (4-guruh) bemorlarida qarshilik indeksi (IR) hayz davrining dinamikasida statistik jihatdan muhim og'ishlarga ega emas edi. Shu bilan birga, barcha klinik guruhlardagi adenomioz bilan og'riqan bemorlarda yuqori darajada chidamli qon oqimi maksimal va statistik jihatdan yuqori ishonchlilik darajasi bilan kuzatildi, butun bachadon arteriyasi havzasida III darajali adenomioz bilan aniqlandi (IRu  $0,98 \pm 0,01$ , IRa  $0,68 \pm 0,05$ , IRr  $0,60 \pm 0,03$ , IRb  $0,58 \pm 0,03$  ga nisbatan IRu  $0,85 \pm 0,12$ , IRa  $0,66 \pm 0,03$ , IRr  $0,52 \pm 0,01$ , IRb  $0,52 \pm 0,01$ , nazorat guruhida  $0,42 \pm 0,40$ ). 1-guruhdagi bemorlarda IRda sezilarli farqlar faqat bachadon arteriyalarida kuzatildi (IRu  $0,92 \pm 0,12$  ga qarshi IRu  $0,85 \pm 0,12$  4-guruhda (nazorat-1),  $p < 0,05$ ), ikkinchi darajali adenomiozli bemorlarda - bachadon va yoysimon arteriyada (IRu  $0,95 \pm 0,15$ , IRa  $0,73 \pm 0,01$  IRu  $0,85 \pm 0,12$ , IRa  $0,66 \pm 0,03$  nazorat guruhi 4,  $p < 0,05$ ).

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Reproduktiv yoshda adenomioz rivojlanishining ayollarning genetik, morfologik va biokimyoviy jihatlarini aniqlash**"ga bag'ishlangan va ular orasida korrelyatsion bog'likni ko'rsatib beradi.

Adenomioz rivojlanishida angiogenez gen omillarining rolini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Angiogenez adenomioz rivojlanishining bir bog'ini hisoblanadi. Angiogenez jarayonining aktivlashishi endometriyni implantatsiyaga yordam beradi. Angiogenez omillarining, shu jumladan genetik jihatdan aniqlangan omillar qon tomirlarining proliferativ faolligi va ektopik endometriumning o'sishi omillarini muvozanati o'rganishga yordam beradi. Shu munosabat bilan genetik xavfni baholash katta ahamiyatga ega. Adenomiozning rivojlanishiga moyillik ma'lum noqulay irsiy fonni yaratadigan gen variantlari allellarga bog'liqligini isbotlangan. Angiogenez omil genlari allellari orasida adenomiozga moyillik - angiogenez va angiogen omillarning rolini ayollarning reproduktiv tizimining kasalliklari proliferativ rivojlanishida yangi va istiqbolli tadqiqot sohasidir.

Tadqiqotimizda adenomioz bilan kasallangan 61 nafar ayol qonida va 60 nafar sog'lom ayollar o'rtasida **MMP-9** genning **A-8208G** polimorfizm allellari va genotipini aniqladik.

### 3-jadval OR

#### Bemor guruhlarida MMP-9 genida A-8208G polimorfizmining allel va genotipik variantlari chastotasidagi farqlar

Allellar va genotiplar	Ko'rib chiqilgan allellar va genotiplar soni				$\chi^2$	P	RR	95%CI	OR	95%CI
	Асосий гурпух		Nazorat guruhi							
	N	%	n	%						
A	90	73,8	98	81,7	2,2	0,30	0,9	0,54 - 1,52	0,6	0,34 - 1,16
<b>G</b>	<b>32</b>	<b>26,2</b>	<b>22</b>	<b>18,3</b>	<b>2,2</b>	<b>0,30</b>	<b>1,1</b>	<b>0,56 - 2,2</b>	<b>1,6</b>	<b>0,86 - 2,92</b>
A/A	36	59,0	41	68,3	1,1	0,40	0,9	0,43 - 1,72	0,7	0,32 - 1,4
A/G	18	29,5	16	26,7	0,1	0,84	1,1	0,52 - 2,34	1,2	0,52 - 2,55
<b>G/G</b>	<b>7</b>	<b>11,5</b>	<b>3</b>	<b>5,0</b>	<b>1,7</b>	<b>0,26</b>	<b>2,3</b>	<b>0,95 - 5,53</b>	<b>2,5</b>	<b>0,63 - 9,65</b>

*Izoh – qisqartmalar ushbu va keyingi genlar bo'yicha tuzilgan jadvallar uchun:* RR (inglizcha - relative risk) - ko'rsatkich >1 bo'lganda, ushbu guruhda nazorat guruhiga nisbatan kasallikni rivojlanish ehtimoli yuqoriligini anglatuvchi nisbiy havf; OR (inglizcha - odds ratio) - ko'rsatkich >1 bo'lganda, ushbu guruhda nazorat guruhiga nisbatan kasallikni rivojlanish ehtimoli yuqoriligini anglatuvchi nisbiy imkoniyat; CI (inglizcha - confidence interval) 95% - ishonchliligi 95%, bo'nda xar ikkala ko'rsatkich 1 dan yuqori yoki past bo'lganda, ko'rsatkichlar ishonchliligi  $p < 0,05$  ga teng bo'ladi;  $\chi^2$  – xi kvadrat - guruhlarda sifat belgilari nazariy va amaliy uchrashini farqlash uchun tanlangan usul, uning ko'rsatkichi qancha yuqori bo'lsa, sifat belgilarini amalda uchrash darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

### 4-jadval

#### Bemor guruhlarida MMP-9 genida A-8208G polimorfizmining allel va genotipik variantlari chastotasidagi farqlar

Allellar va genotiplar	Ko'rib chiqilgan allellar				$\chi^2$	p	RR	95%CI	OR	95%CI
	Diffuz adenomiozning III darajasi		Nazorat guruhi							
	N	%	N	%						
A	30	71,4	98	81,7	2,0	0,29	0,9	0,3 - 2,58	0,6	0,25 - 1,26
<b>G</b>	<b>12</b>	<b>28,6</b>	<b>22</b>	<b>18,3</b>	<b>2,0</b>	<b>0,29</b>	<b>1,1</b>	<b>0,68 - 1,93</b>	<b>1,8</b>	<b>0,79 - 3,99</b>
A/A	13	61,9	41	68,3	0,3	0,66	0,9	0,21 - 3,94	0,8	0,27 - 2,12
A/G	4	19,0	16	26,7	0,5	0,59	0,7	0,11 - 4,73	0,6	0,19 - 2,2
<b>G/G</b>	<b>4</b>	<b>19,0</b>	<b>3</b>	<b>5,0</b>	<b>3,9</b>	<b>0,10</b>	<b>3,8</b>	<b>0,85 - 17,07</b>	<b>4,5</b>	<b>1,01 - 19,81</b>

Adenomioz III darajasi bilan kasallangan MMP-9 geni A-8208G polimorfizmining GG genotipi va nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori ekanligi aniqlandi, shuningdek,  $X^2 = 3.9$  va  $p = 0.1$  bo'lgan nazorat namunasi vakillariga (5,0%) nisbatan adenomiozli (19,0%) bilan respondentlarda bir oz ko'proq tarqalgan. Ushbu allel tashuvchilarda patologiyani rivojlanish xavfi -1.01-19.81 ishonch oralig'i bilan  $OR=4.5$

## 5-jadval

### VEGF genida C-634G polimorfizmining allel va genotipik variantlari chastotasidagi farqlar

Allellar va genotiplar	Ko'rib chiqilgan allellar va genotiplar soni				$\chi^2$	p	RR	95%CI	OR	
	Asosiy guruh		Nazorat guruhi							
	n	%	n	%						
C	37	30,3	23	19,2	4,0	0,10	1,6	0,96 - 2,6	1,8	1,02 - 3,32
G	85	69,7	97	80,8	4,0	0,10	0,6	0,32 - 1,25	0,5	0,3 - 0,98
C/C	3	4,9	2	3,3	0,2	0,75	1,5	0,35 - 6,27	95% CI	0,24 - 9,21
C/G	31	50,8	19	31,7	4,6	0,11	1,6	0,81 - 3,17	2,2	1,07 - 4,65
G/G	27	44,3	39	65,0	5,2	0,08	0,7	0,34 - 1,37	0,4	0,21 - 0,88


